

RAQAMLI QARAMLIKNING YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIGA

TA'SIRI: IJTIMOY-FALSAFIY YONDASHUV

Mo'minov Azamat Solijonovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22743866>

Annotatsiya. Maqolada raqamli qaramlik fenomeni zamonaviy yoshlar ijtimoiylashuvining strukturaviy determinanti sifatida ijtimoiy-falsafiy tahlil doirasida tadqiq etilgan. Muallif uni individual iroda zaifligining natijasi emas, balki axborot sivilizatsiyasining ontologik-antropologik ziddiyatlaridan kelib chiquvchi kompleks ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Metodologik asosni tarmoq jamiyati nazariyasi, "suyuq zamonaviylik" konsepsiyasi va giperreallik paradigmasi sintezi tashkil etadi. Ishda ijtimoiylashuv agentlari tizimidagi transformatsiya — an'anaviy institutlar monopoliyasining algoritmik tavsiya tizimlari foydasiga qayta taqsimlanishi asoslab berilgan hamda klip tafakkur, virtual identiklikning fragmentarlashuvi va aksiologik relyativizm kabi oqibatlar tahlil qilingan. Yakunda raqamli-ma'naviy immunitetni shakllantirishning uch bosqichli modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli qaramlik, ijtimoiylashuv, yoshlar, tarmoq jamiyati, virtual identiklik, giperreallik, klip tafakkur, ekran madaniyati, e'tibor iqtisodiyoti, raqamli-ma'naviy immunitet, aksiologik relyativizm, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Аннотация. В статье феномен цифровой зависимости исследуется в рамках социально-философского анализа как структурный детерминант социализации современной молодежи. Автор интерпретирует его не как результат слабости индивидуальной воли, а как сложное социальное явление, обусловленное онтологическими и антропологическими противоречиями информационной цивилизации. Методологическую основу составляет синтез теории сетевого общества, концепции «текущей современности» и

парадигмы гиперреальности. В работе обосновывается трансформация системы агентов социализации — перераспределение монополии традиционных институтов в пользу алгоритмических рекомендательных систем, а также анализируются такие последствия, как клиповое мышление, фрагментация виртуальной идентичности и аксиологический релятивизм. В заключение предлагается трехэтапная модель формирования цифрово-духовного иммунитета.

Ключевые слова: *цифровая зависимость, социализация, молодежь, сетевое общество, виртуальная идентичность, гиперреальность, клиповое мышление, экранная культура, экономика внимания, цифрово-духовный иммунитет, аксиологический релятивизм, социально-философский анализ.*

Abstract. *The article examines the phenomenon of digital addiction within the framework of socio-philosophical analysis as a structural determinant of the socialization of contemporary youth. The author interprets it not as a result of individual weakness of will, but as a complex social phenomenon arising from the ontological and anthropological contradictions of information civilization. The methodological framework is based on a synthesis of network society theory, the concept of "liquid modernity," and the hyperreality paradigm. The study substantiates the transformation of the system of socialization agents, namely, the redistribution of the monopoly traditionally held by conventional institutions in favor of algorithmic recommendation systems, and analyzes such consequences as clip thinking, fragmentation of virtual identity, and axiological relativism. Finally, a three-stage model for developing digital-spiritual immunity is proposed.*

Keywords: *digital addiction, socialization, youth, network society, virtual identity, hyperreality, clip thinking, screen culture, attention economy, digital-spiritual immunity, axiological relativism, socio-philosophical analysis.*

KIRISH

Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichi ijtimoiy-falsafiy tafakkur oldiga inson borlig'ining texnologik vositachilik orqali tubdan qayta qurilishi bilan bog'liq yangi muammolar majmuasini ko'ndalang qo'ymoqda. D.Bell asoslagan postindustrial jamiyat nazariyasi, A.Toffler ilgari surgan "uchinchi to'lqin" konsepsiyasi hamda M.Kastels ishlab chiqqan tarmoq jamiyati paradigmasi axborotni oddiy ishlab chiqarish resursi maqomidan ijtimoiy strukturani konstitutsiyalovchi omil darajasiga ko'tardi [2]. Biroq XXI asrning uchinchi o'n yilligiga kelib mazkur nazariy modellarning ham eksplanator salohiyati o'z chegaralariga yaqinlashdi: bugungi kunda tadqiqot predmeti axborotning ijtimoiy hayotdagi o'rni emas, balki inson subyektivligi bilan raqamli infratuzilmaning o'zaro singishuvi - antropo-texnologik gibridlashuv jarayonidir. Aynan shu kontekstda "raqamli qaramlik" (digital dependence) tushunchasi zamonaviy ijtimoiy falsafaning markaziy kategoriyalaridan biriga aylanib bormoqda. Muhimi shundaki, mazkur fenomenni faqat klinik-psixiatrik nuqtai nazardan, ya'ni xulq-atvor addiksiyasining alohida bir turi sifatida talqin qilish uning ijtimoiy tabiatini sezilarli darajada soddalashtirishga olib keladi. Raqamli qaramlik individual irodaning zaifligidan kelib chiqadigan tasodifiy holat emas, balki e'tibor iqtisodiyoti (attention economy) mantiqiga asoslangan platforma kapitalizmi tomonidan tizimli ravishda ishlab chiqariladigan strukturaviy vaziyatdir. Shu bois uni tahlil qilishda metodologik urg'u individual patologiya tekisligidan institutsional dizayn va ijtimoiy arxitektura tekisligiga ko'chirilishi zarur. Yoshlar ijtimoiylashuvi muammosining alohida dolzarblik kasb etishi mazkur ijtimoiy-demografik guruhning o'ziga xos ontologik holati bilan izohlanadi. E.Dyurkgeym, T.Parsons hamda P.Berger va T.Lukmanlar asoslab bergan klassik sotsializatsiya nazariyasiga ko'ra, shaxsning ijtimoiylashuvi ijtimoiy voqelikning obyektivlashuvi, internallashuvi va qayta eksternallashuvi bosqichlaridan iborat uzluksiz dialektik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda birlamchi (oila) va ikkilamchi (ta'lim

muassasasi, mehnat jamoasi, tengdoshlar guruhi) agentlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli davr esa mazkur agentlar tizimiga mutlaqo yangi, an'anaviy institutlarning normativ nazoratidan tashqarida faoliyat yurituvchi kuchni - algoritmik vositachini kiritdi. M.Prenski tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan "raqamli aborijenlar" va "raqamli muhojirlar" o'rtasidagi farqlanish avlodlararo kommunikatsiyaning epistemologik uzilishini nazariy jihatdan qayd etdi [7]. Bugungi yoshlar uchun raqamli muhit tashqi yordamchi vosita emas, balki dunyoni idrok etishning apriori shakli, o'ziga xos transsendental sxematizmi vazifasini bajaradi. M.Maklyuenning "vosita - bu xabarning o'zidir" degan mashhur tezisi aynan shunday sharoitda o'zining to'liq falsafiy salmog'iga erishadi: ekran interfeysi shunchaki mazmun uzatuvchi neytral kanal bo'lmay, idrok etish tuzilmasini, diqqat rejimini, xotira mexanizmini va vaqtni his qilish tarzini qayta formatlovchi ontologik omilga aylanadi.

Raqamli qaramlikning empirik namoyon bo'lish shakllari sifatida ilmiy adabiyotda nomofobiya (smartfondan ayrilish qo'rquvi), FOMO sindromi (fear of missing out - muhim voqealardan chetda qolish tashvishi), doomscrolling (salbiy axborotni kompulsiv tarzda uzluksiz iste'mol qilish), fantom vibratsiya effekti hamda "klip tafakkur"ning shakllanishi alohida qayd etiladi. D.Kuss va M.Griffits olib borgan meta-tahliliy tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish bilan psixoemotsional beqarorlik o'rtasidagi statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiyani tasdiqlaydi [8]. N.Karr esa uzluksiz gipermatnli o'qish amaliyoti chuqur, konsentratsiyalangan va reflektiv tafakkur ko'nikmasining bosqichma-bosqich eroziyasiga olib kelishini asoslab beradi [10]. Falsafiy nuqtai nazardan raqamli qaramlik giperreallik muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. J.Bodriyar ta'kidlaganidek, simulyakrlar tizimi ma'lum bir bosqichda voqelikning in'ikosi bo'lishdan to'xtab, o'zi voqelikni ishlab chiqara boshlaydi. Ijtimoiy tarmoqdagi profil - shaxsning oddiy aksi emas, balki ijtimoiy ma'qullanish algoritmgiga ongli ravishda moslashtirilgan loyihalashtirilgan konstruksiyadir.

Mazkur holatni G.Debor tavsiflagan "tomosha jamiyati"ning raqamli bosqichi sifatida talqin qilish mumkin; Byon-Chxul Xan esa uni "shaffoflik jamiyati" va sub'yektning o'z-o'zini ekspluatatsiya qilish tartibi sifatida tavsiflaydi. Natijada yoshlar ongida "bo'lish" modusi asta-sekin "ko'rinish" modusi bilan almashinadi. Z.Bauman ilgari surgan "suyuq zamonaviylik" konsepsiyasi ushbu jarayonning ijtimoiy-strukturaviy asosini ochib berishga imkon yaratadi [4]. Barqaror institutsional shakllarning erishi, ijtimoiy aloqalarning qisqa muddatli hamda istalgan paytda bekor qilinishi mumkin bo'lgan kontaktlarga aylanishi, identiklikning bir marta va butun umrga beriladigan status bo'lishdan to'xtab, doimiy qayta ko'rib chiqiluvchi loyihaga aylanishi — bularning barchasi raqamli muhitda o'zining eng yorqin ifodasini topadi. S.Torkl bu holatni "birga yolg'izlik" (alone together) paradoksi orqali tavsiflaydi: kommunikativ aktlar sonining eksponensial o'sishi haqiqiy yaqinlik, ishonch va empatiyaning tanqisligi bilan hamrohlik qiladi [5]. Milliy-madaniy kontekstda muammo qo'shimcha o'lchov kasb etadi. O'zbekiston jamiyati uchun ijtimoiylashuvning an'anaviy modeli mahalla, oila va ustoz-shogird institutlariga tayangan, ya'ni bevosita shaxslararo muloqotga hamda avlodlar o'rtasidagi vertikal aksiologik uzatishga asoslangan edi. Raqamli vositachilik esa mazkur vertikal uzatish zanjiriga muqobil — gorizontaal, anonim va madaniy jihatdan begona kanalni kiritadi. Bu holat qadriyatlar tizimida "gibrid identiklik" muammosini keltirib chiqaradi: shaxs bir vaqtning o'zida bir necha, ayrim hollarda esa o'zaro nomutanosib normativ tizimlar doirasida faoliyat yuritishga majbur bo'ladi va bu ichki aksiologik ziddiyatni kuchaytiradi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangani, "Uchinchi Renessans" g'oyasining ilgari surilishi hamda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarning amalga oshirilayotgani mazkur muammoning davlat siyosati darajasida e'tirof etilganidan dalolat beradi [1; 9]. S.Ergashbayev haqli ravishda ta'kidlaganidek, yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish uzluksiz ta'lim

tizimining tizimli vazifasi hisoblanadi va mazkur jarayon epizodik tashviqot tadbirlari bilan emas, balki barqaror institutsional mexanizmlar orqali ta'minlanishi lozim [6]. Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli qaramlik muammosi hozirgacha asosan psixologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari doirasida tadqiq etilgan bo'lib, uning ijtimoiy-falsafiy o'lchovi - ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlari yetarlicha kontseptuallashtirilmagan. Xususan, milliy ijtimoiy-falsafiy adabiyotda raqamli qaramlikni ijtimoiylashuv agentlari tizimidagi strukturaviy siljish sifatida talqin qiluvchi integrativ nazariy model ishlab chiqilmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning muammoli maydonini belgilaydi va uning nazariy ahamiyatini asoslaydi. Muammoning strukturaviy jihati shundaki, klassik modelda ijtimoiylashuv agentlari ierarxik tarzda joylashgan bo'lib, oila normativ yadro vazifasini bajargan. Raqamli davrda ushbu ierarxiya tarmoqli-gorizontaal tuzilma bilan almashinmoqda: algoritmik tavsiya tizimlari amalda "yashirin tarbiyachi" rolini bajarib, foydalanuvchi diqqatini boshqarish orqali uning qiziqishlar doirasini, ideal namunalarini va hattoki axloqiy mo'ljallarini shakllantiradi. Mazkur agentning hech qanday pedagogik maqsadga ega emasligi, uning yagona mezoni e'tiborni ushlab turish vaqtining maksimallashtirilishi ekanligi raqamli sotsializatsiyani maqsadsiz, biroq nihoyatda samarali jarayonga aylantiradi. Ushbu siljish avlodlararo aksiologik transmissiya zanjirida uzilishni keltirib chiqaradi: texnologik kompetentlik bo'yicha ustunlik yosh avlod tomoniga o'tishi an'anaviy avtoritetning legitimlik asosini zaiflashtiradi va tarbiyaviy ta'sirni statusga emas, muloqot sifati hamda shaxsiy namunaga bog'liq holatga o'tkazadi. Ikkinchi ontologik jihat - makon kategoriyasining deterritorializatsiyasi. Yoshlar uchun "joy" tushunchasi endi geografik lokusga emas, balki kommunikativ platformaga bog'lanadi. Mahalliy jamoaga tegishlilik hissi virtual hamjamiyatga tegishlilik hissi bilan raqobatga kirishadi. Bu esa ijtimoiy identiklikning an'anaviy makoniy langarlaridan uzilishiga olib keladi.

Tadqiqotning maqsadi - raqamli qaramlikning yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil doirasida kontseptuallashtirish hamda ushbu ta'sirni optimallashtirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: raqamli qaramlikning ontologik asoslarini aniqlash; ijtimoiylashuv agentlari tizimidagi transformatsiyani tavsiflash; uning aksiologik va gnoseologik oqibatlarini tahlil qilish; raqamli-ma'naviy immunitetni shakllantirishning ko'p bosqichli modelini taklif etish. Metodologik asos sifatida dialektik, tizimli-strukturaviy, germeneytik, qiyosiy-tipologik hamda sotsiomadaniy yondashuvlar majmuidan foydalanildi. Muammoning yechimi raqamli texnologiyalarni cheklashda emas, balki shaxsning raqamli muhitda subyektlik pozitsiyasini saqlab qolish qobiliyatini - raqamli-ma'naviy immunitetni shakllantirishdadir. Mazkur immunitet uch darajada quriladi. Individual-ekzistensial darajada bu - refleksiya ko'nikmasi, vaqtni ongli boshqarish va "raqamli gigiyena" madaniyati. Institutsional-pedagogik darajada bu - uzluksiz ta'lim tizimiga media savodxonlik va tanqidiy tafakkur modullarini integratsiya qilish [3; 6]. Milliy-strategik darajada esa bu - raqamli makonda milliy mazmunni ishlab chiqarish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash siyosatidir.

XULOSA

Olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil quyidagi umumlashmalarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, raqamli qaramlik individual xulq-atvor deviasiyasi darajasidagi hodisa emas, balki axborot sivilizatsiyasining institutsional dizayni tomonidan ishlab chiqariladigan strukturaviy holatdir. Uni faqat psixologik yoki tibbiy tushunchalar orqali izohlash muammoning ijtimoiy-ontologik mohiyatini xiralashtiradi, shu bois tadqiqotning adekvat metodologik ramkasi ijtimoiy falsafa hisoblanadi. Ikkinchidan, raqamli davr ijtimoiylashuv agentlari tizimida sifat jihatidan yangi vaziyatni vujudga keltirdi: an'anaviy institutlarning normativ monopoliyasi tugab, ularning o'rniga tarbiyaviy maqsadga ega bo'lmagan, biroq amalda tarbiyaviy funksiyani bajaruvchi algoritmik vositachi kirib keldi.

Uchinchidan, raqamli qaramlikning oqibatlarini ontologik, gnoseologik va aksiologik o'lovlarida o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi; ulardan birortasini alohida hal qilishga urinish samarasizdir. To'rtinchidan, muammoning konstruktiv yechimi taqiqlash paradigmasida emas, balki subyektivlikni mustahkamlash paradigmasida yotadi. Taklif etilgan uch bosqichli model yoshlarni raqamli muhitning passiv iste'molchisidan uning ongli subyektivtga aylantirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida uni amalga oshirishning eng istiqbolli yo'li uzluksiz ta'lim tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Castells, M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture. Vol. I / M. Castells. – 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 597 p.
3. Ergashbaev, S. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish / S. Ergashbaev // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1, № 1. – С. 314–316.
4. Bauman, Z. Liquid Modernity / Z. Bauman. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p.
5. Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other / S. Turkle. – New York: Basic Books, 2011. – 360 p.
6. Ergashbayev, S. Uzluksiz ta'lim tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish / S. Ergashbayev // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 10–13.
7. Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants / M. Prensky // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, № 5. – P. 1–6.



8. Kuss, D. J. Online Social Networking and Addiction: A Review of the Psychological Literature / D. J. Kuss, M. D. Griffiths // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2011. – Vol. 8, № 9. – P. 3528–3552.
9. Mirzaolimjon o‘g‘li, M. M. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati va universitetlarning yangi modellari / M. M. Mirzaolimjon o‘g‘li, E. Shohbozbek // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – T. 16, № 01. – B. 325–328.
10. Carr, N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains / N. Carr. – New York: W. W. Norton & Company, 2010. – 276 p.